

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV
TA'LIMNING ZAMONAVIY ASOSLARI**

*Namangan viloyati Kosonsoy
tumani 14-son DMTT psixologi
Rahmonova Madina Bahodirovna*

Annotatsiya

Ushbu maqolda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limning ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilib berilgan. Bu borada ushbu muammoni yechimi pedagogik jihatdan o'rganildi va aniq manzilli taklif va tavsilar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Bola huquqlari haqidagi konvensiya, Maxsus ta'lim, Inklyuziv ta'lim, Inklyuziv texnologiya, Inklyuziv pedagogika, Home vizits dasturi

**MODERN FOUNDATIONS OF INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS****Annotation**

This article analyzes the scientific and theoretical aspects of inclusive education in preschool educational organizations. In this regard, the solution to this problem was studied pedagogically and specific proposals and recommendations were made.

Keywords: Convention on the Rights of the Child, Special Education, Inclusive Education, Inclusive Technology, Inclusive Pedagogy, Home Visit Program

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg'ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo'shishlariga umid bog'lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonun va qator muhim me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topish huquqlariga egadirlar.

Albatta imkoniyati cheklanlangan, tayanch harakatlarida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga moslashtirish ta'lim tizimining oldida turgan dolzrab vazifalardan biridir. Bu borada "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida "...alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar — nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar"ni davlat qonun yo'li bilan muhofaza qilishni o'z me'yoriy-

huquqiy hujjatida keltirib o'tgan. Davlat uzluksiz ta'limni isloh qilar ekan, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning bosh va tayanch bo'g'inidir.

1994 yilda YUNESKO «Maxsus ta'lim zaruriyati» nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun ta'limni tashkil etish hamda takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqdi. Ushbu ta'lim turida asosiy o'rin rehabilitatsiya masalalariga ajratilgan. Hujjatda: «Maxsus ta'limni alohida yordamga muhtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o'smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash», – deb ta'kidlangan.

Yuqoridagi masalalardan kelib chiqqan holda umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda ta'lim sifatini samaradorligini oshirish maktabgacha ta'lim tizimining eng asosiy maqsadalaridan biridir. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga moslashtirish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlari asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'i nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur maqolada inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi.

Olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar asosida inklyuziv ta'lim texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Inklyuziv ta'lim texnologiyasi (ITT) – bu uzluksiz ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashtirgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbiyaning

pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir».

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni amaliyotga tatbiq etgan holda quidagi muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va muammoni yechish nazarda tutadi:

- Uy sharoitda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari joylardagi fuqarolik institutlari (mahalla, mahalliy davlat hokimiyati ma'murlari) bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab quvvatlash mexanizmini yo'lga qo'yish lozim;
- Uy sharoitidagi ta'limning muqobil variantlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yangi ta'lim texnologiyalarini va dasturlarni ishlab chiqish lozim (Home vizits dasturi);
- Uy sharoitda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tyuterlik shtatini joriy qilish va bu bo'yicha davlat boshqaruv organiga va maktabgacha ta'lim vazirligiga taklif kiritish lozim deb o'ylayman.

Birinchi masala bo'yicha, uy sharoitda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari joylardagi fuqarolik institutlari (mahalla, mahalliy davlat hokimiyati ma'murlari) bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab quvvatlash mexanizmini yo'lga qo'yish borasida nogiron farzandi bor oilalarni davlat tomonidan to'liq monitoringi qilinib ularga o'z nafaqlaridan tashqari ijtimoiy kredit (foizsiz) berish va ularni maqsadli sarflash va yo'naltirish orqali jamiyatga integratsiya qilib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan Germanida dunyoga mashhur kompaniyalardan biri "Mercedes Bens" zavodidagi katta konveyrlardan birida faqat nogiron bo'lgan insonlar faoliyat yuritishadi. Bu nogironlar albatta bolalik davrdan boshlab davlat tomonidan to'liq ijtimoiy himoyaga olindi va o'z qiziqishlari (Hobbisi)ga ko'ra u yerda ishlashlari uchun sharoit va imkoniyat yaratib berdi. Aynan bugungi kunda nogironlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash davlatimiz siyosatining asosiy maqsadi bo'lishi har qachongidan ham muhimdir.

Ikkinchi masala bo'yicha, uy sharoitidagi ta'limning muqobil variantlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yangi ta'lim texnologiyalarini va dasturlarni ishlab chiqish (Home vizits dasturi)da mavjud dasturni o'rganish va uni maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv jarayoniga kiritilishi shart sifatida qaralmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019 yil 8 mayda tasdiqlagan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tganlaridek uyda yashab lekin bog'chaga kela olmaydigan imkoniyati cheklangan bolalar uchun aynan ushbu dasturni 2025 yilgacha ishga tushirish kerakligi haqida o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan edilar. Bu dasturni ijrosini amalga oshirishda bugun uy sharoitida yashab hayot kechirayotgan nogiron yoki imkoniyati cheklangan bolalarni dunyoqarashlarni o'zgartirish, ularda hayotga bo'lgan muosabatni, yashashga

bo'lgan idrokni uyg'otish albatta bu davlat talabining ham bosh vazifalaridan biridir. Shu sababdan ushbu muammoni o'rganish bo'yicha keng ko'lamli ilohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Uchinchi masala bo'yicha, uy sharoitda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tyuterlik shtatini joriy qilish va bu bo'yicha davlat boshqaruv organiga va maktabgacha ta'lim vazirligiga taklif kiritishda albatta moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi lozim. Qolaversa ushbu masalani davlat miqyosidagi ilmiy anjumanlar platformasida muhokama qilish lozim. Chunki uy sharoitida inklyuziv ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash uchun va umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ularni tarbiyachidan tashqari ham hayotga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishda va tarbiyalashda tyuterning bo'lishi lozim. Yana bir muhim jihati tyuter inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan doim muloqot maydonini kengaytirib boradi. Hatto aqli nosog'lom toifadiga bolalar ham tyuterni o'z yaqinlaridan a'lo ko'rishi mumkin. Bu esa bolaning rivojlanishida sog'lom ijobiy muhitni yaratishga olib kelishi mumkin. Albatta bu o'zimning sub'ektiv nuqtai nazarim. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti va uy sharoitida yashab inklyuziv ta'lim olayotgan bollarni ustida tajriba o'tkazish pedagogik-psixologik so'rovnomalarni tashkil qilish doimiy ravishda ularning ota-onalari bilan muloqot qilib turish. Ular o'rtasida sog'lom psixologik muhit yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'chma maqomga ega bo'lgan tyuterlik shtatlarini tashkil qilish va shu orqali mavjud ta'lim tarbiya sifatiga innovatsion yechim sifatida qaralishi lozim. Yana bir muhim jihati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tyuter shtati o'z qaramog'idagi imkoniyati cheklangan tarbiyalanuvchining o'zlaridagi ijobiylik tamoyilidan kelib chiqqan holda uni rag'batlantirish yoki aksincha o'z lavozimidan bo'shatish lozim.

Xulosa qilganda inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika va psixologiya fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik psixologiyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu borada, Dj.Bruner, J. Piaje, A.Vallon, S.Xoll, Ye.Meyerman, K.Byuler, Ye.Dyurkgeym, D.Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Chunonchi, angliyalik olim Djok Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top - toza taxtaga» o'xshatadi. Uning fikricha, «Bolaning «top -toza taxta»

tarzidagi ruhiyatiga nimalar yozish kerakligi, bu kattalar ixtiyoridadir, bolaning qanday inson bo‘lib yetishishi, unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, o‘zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlarga bog‘liqdir» deb ta’kidlaydi.

Amerikalik psixolog olim S.Xoll «Har qanday bola o‘zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinklarni og‘riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur» deb aytadi. S.Xoll o‘z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to‘plab bola ta’lim-tarbiyasi haqida psixologik, fiziologik hamda bilimlarning mujassam dasturini yaratish g‘oyasini olg‘a suradi.

Demak, ta’lim rivojlanish qonunlariga bo‘ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o‘rgatishga foydasizdir. Ta’limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat’i nazar, bog‘liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. UNESCO: Jamiyatga va maxsus ta’limga muhtojlarga qaratilgan Dastur. – 1994.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlarida-innovatsion-inklyuziv-ta-limni-tashkil-etish>